



# NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



## NAVOIY VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

*2024- yil yanvar-avgust  
oylari uchun dastlabki  
ma'lumot*

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi:  
Tel.: (99879) 223-50-43*



## TASHQI SAVDO AYLANMASI



Navoiy viloyatida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Viloyatimizda bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024- yil yanvar-avgust oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 1 027,9 mln. AQSH dollariga etdi va 2023- yilning mos davriga nisbatan 114,7 % ni tashkil etdi.



## TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-avgust 2024 y., mln. AQSH dollari)



### Tashqi savdo aylanmasi

2024- y.: **1 027,9** +14,7 %

(2023- y.: 896,5)



Saldo

2024- y.: **402,9** (2023- y.: - 41,5)




### Eksport

2024- y.: **715,4** +67,3 %

(2023- y.: 427,5)

TSA'dagi ulushi, %da



### Import

2024- y.: **312,5** - 33,4 %

(2023- y.: 469,0)





**Tashqi savdo aylanmasi** – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasida O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobi tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi 715,4 mln. AQSH dollariga (2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 167,3 % ni tashkil etdi) va import hajmi 312,5 mln. AQSH dollariga (66,5 % ni tashkil etdi) yetdi. Hisobot davrida 402,9 mln. AQSH dollari qiymatida musbat tashqi savdo balansi qayd etildi.



### NAVOIY VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2024- yil yanvar-avgust, mln. AQSH dollari)











<p><b>Fransiya</b></p> <p>TSA – 486,0</p> <p>Eksport: 484,7 Import: 1,3</p> <p> 47,3 %</p>	<p><b>Rossiya</b></p> <p>TSA – 130,9</p> <p>Eksport: 58,7 Import: 72,2</p> <p> 12,7 %</p>	<p><b>XXR</b></p> <p>TSA – 105,5</p> <p>Eksport: 3,3 Import: 102,2</p> <p> 10,3 %</p>	<p><b>Hindiston</b></p> <p>TSA – 48,6</p> <p>Eksport: 45,3 Import: 3,3</p> <p> 4,7 %</p>	<p><b>Qozog‘iston</b></p> <p>TSA – 48,0</p> <p>Eksport: 18,9 Import: 29,1</p> <p> 4,6 %</p>
<p><b>Turkiya</b></p> <p>TSA – 40,8</p> <p>Eksport: 21,7 Import: 19,1</p> <p> 4,0 %</p>	<p><b>Daniya</b></p> <p>TSA – 19,7</p> <p>Eksport: 18,4 Import: 1,3</p> <p> 1,9 %</p>	<p><b>Yaponiya</b></p> <p>TSA – 16,6</p> <p>Eksport: - Import: 16,6</p> <p> 1,6 %</p>	<p><b>Afg‘oniston</b></p> <p>TSA – 16,5</p> <p>Eksport: 16,4 Import: 0,1</p> <p> 1,6 %</p>	<p><b>Germaniya</b></p> <p>TSA – 13,3</p> <p>Eksport: 0,2 Import: 0,8</p> <p> 1,3 %</p>











Navoiy viloyati jahonning 68 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Fransiyada (47,3 %), Rossiyada (12,7 %), XXRda (10,3 %), Hindistonda (4,7 %) va Qozog‘istonda (4,6 %) qayd etilgan.



## NAVOIY VILOYATININGYIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-avgust, mln. AQSH dollari)


Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
<b>Fransiya</b>	<b>62,2</b>	<b>261,8</b>	<b>486,0</b>
 <i>Eksport</i>	60,4	257,4	484,7
<i>Import</i>	1,8	4,4	1,3
<b>Rossiya</b>	<b>185,2</b>	<b>146,0</b>	<b>130,9</b>
 <i>Eksport</i>	57,6	34,5	58,7
<i>Import</i>	127,6	111,5	72,2
<b>XXR</b>	<b>143,1</b>	<b>126,2</b>	<b>105,5</b>
 <i>Eksport</i>	27,5	10,3	3,3
<i>Import</i>	115,6	115,9	102,2
<b>Hindiston</b>	<b>14,5</b>	<b>48,2</b>	<b>48,6</b>
 <i>Eksport</i>	-	40,2	45,3
<i>Import</i>	14,5	8,0	3,3
<b>Qozog'iston</b>	<b>61,2</b>	<b>47,3</b>	<b>48,0</b>
 <i>Eksport</i>	15,5	12,6	18,9
<i>Import</i>	45,7	34,7	29,1
<b>Turkiya</b>	<b>51,8</b>	<b>42,5</b>	<b>40,8</b>
 <i>Eksport</i>	32,6	21,9	21,7
<i>Import</i>	19,2	20,6	19,1
<b>Daniya</b>	-	<b>8,3</b>	<b>19,7</b>
 <i>Eksport</i>	-	7,3	18,4
<i>Import</i>	-	1,0	1,3
<b>Yaponiya</b>	<b>4,1</b>	<b>34,5</b>	<b>16,6</b>
 <i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	4,1	34,5	16,6
<b>Avg'oniston</b>	-	<b>14,7</b>	<b>16,5</b>
 <i>Eksport</i>	-	14,7	16,4
<i>Import</i>	-	-	0,1
<b>Germaniya</b>	<b>12,7</b>	<b>19,1</b>	<b>13,3</b>
 <i>Eksport</i>	-	-	0,2
<i>Import</i>	12,7	19,1	13,0

Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
<b>AQSH</b>	<b>2,1</b>	<b>1,8</b>	<b>10,5</b>
 <i>Eksport</i>	0,4	0,1	4,4
<i>Import</i>	1,7	1,7	6,1
<b>Qirg'iziston</b>	<b>17,9</b>	<b>9,8</b>	<b>10,5</b>
 <i>Eksport</i>	16,2	7,7	9,7
<i>Import</i>	1,7	2,1	0,8
<b>Eron</b>	<b>10,0</b>	<b>6,1</b>	<b>8,3</b>
 <i>Eksport</i>	2,9	2,2	4,9
<i>Import</i>	7,1	3,9	3,4
<b>Turkmaniston</b>	<b>23,5</b>	<b>2,4</b>	<b>7,5</b>
 <i>Eksport</i>	22,3	1,7	5,7
<i>Import</i>	1,2	0,7	1,8
<b>Litva</b>	<b>13,5</b>	<b>17,6</b>	<b>7,4</b>
 <i>Eksport</i>	9,3	6,5	5,6
<i>Import</i>	4,2	11,1	1,8
<b>Koreya Respublikasi</b>	<b>15,7</b>	<b>15,4</b>	<b>6,3</b>
 <i>Eksport</i>	0,01	0,1	-
<i>Import</i>	15,7	15,3	6,3
<b>Shimoliy Irlandiya</b>	<b>0,2</b>	<b>7,9</b>	<b>6,1</b>
 <i>Eksport</i>	-	-	0,5
<i>Import</i>	0,2	7,9	5,6
<b>Italiya</b>	<b>1,5</b>	<b>2,5</b>	<b>4,9</b>
 <i>Eksport</i>	0,1	1,5	-
<i>Import</i>	1,4	1,0	4,9
<b>Tojikiston</b>	<b>4,3</b>	<b>3,4</b>	<b>4,4</b>
 <i>Eksport</i>	4,3	3,3	4,2
<i>Import</i>	-	0,1	0,2
<b>Chexiya</b>	<b>1,4</b>	<b>4,8</b>	<b>3,8</b>
 <i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	1,4	4,8	3,8



## NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI


(2024- yil yanvar-avgust, ming AQSH doll.)\*



Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Navoiy shahri 64,8 % ulush bilan 666 470,2 ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Uchquduq tumani 0,1 % ulush bilan 1 512,3 ming AQSH dollarini tashkil etdi.

\* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan

## NAVOIY VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-avgust, mln. AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar-avgust oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 20,4 % ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 98,1 % ni tashkil etdi.



Boshqa xorijiy davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yilning yanvar-avgust oylarida 2023- yilning mos davriga nisbatan 19,8 % ga ko'paydi va jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 79,6 % ni tashkil etdi.

Navoiy viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yil yanvar-avgust holatiga ko'ra, 209,6 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 103,9 mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 105,7 mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



## NAVOIY VILOYATINING MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI (2024- yil yanvar-avgust, ulushi, % da)





Navoiy viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi eng yuqori hajmlari Rossiya (12,7 %), Qozog'iston (4,7 %) hamda Qirg'iz Respublikasi (1,0 %) davlatlari bilan qayd etildi.



## NAVOIY VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-avgust, mln. AQSH dollari)



 Navoiy viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 191,7 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi 89,3 mln. AQSH dollari, import hajmi esa 102,4 mln. AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi va Belarus) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.



## NAVOIY VILOYATINING EKSPORTI

(2024- yil yanvar-avgust)



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, eksportyorlar tomonidan 715,4 mln. AQSH dollari qiymatidagi (2023- yilning mos davriga nisbatan 67,3 % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



### XSST\* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-avgust ulushi % da)



Navoiy viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.




## NAVOIY VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (yanvar-avgust, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
<b>Jami eksport</b>	<b>427,5</b>	<b>715,4</b>	<b>112,6</b>	<b>167,3</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	21,4	23,6	176,7	110,3	5,0	3,2
Ichimliklar va tamaki	-	-	-	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	14,1	16,2	41,9	114,9	3,3	2,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	13,4	20,5	2,5 m.	153,0	3,1	2,9
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,6	1,4	199,2	2,3 m.	0,1	0,2
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	305,4	544,2	132,0	178,2	71,4	76,1
Sanoat tovarlari	57,3	92,4	69,4	161,3	13,4	12,9
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	4,5	1,6	58,0 m.	35,6	1,1	0,2
Turli xil tayyor buyumlar	10,1	14,7	81,5	145,5	2,4	2,0
Xizmatlar	0,7	0,8	40,7	114,3	0,2	0,1

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,9 % ni tashkil etib, ular asosan katta ulush kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (76,1 %), sanoat tovarlari (12,9 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (3,2 %) hissasiga tog'ri kelmoqda.

**NAVOIY VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI**  
(2024- yil yanvar-avgust)

 XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	Umumiy hajmga nisbatan. % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>	23 642,4	100,0 %
Sabzavotlar va mevalar	9 438,7	39,9
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	12 555,3	53,1
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	1 636,3	6,9
Tirik hayvonlar	12,1	0,1
<b>Ichimliklar va tamaki</b>	-	-
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>	16 218,6	100,0 %
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	3 501,3	21,6
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	5 374,1	33,1
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	292,1	1,8
Metall rudalari va metall parchalari	7 051,1	43,5
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>	20 540,0	100%
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	20 540,0	100
<b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>	1 376,7	100%
O'simlik moylari va yog'lari, xom, tozalangan yoki fraksiyalangan	1 376,7	100
<b>Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar</b>	540 165,4	100%
Noorganik kimyo moddalari	527 317,2	97,6
Birlamchi shakldagi plastmassalar	8,5	0,001
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	7 174,6	1,3
O'g'itlar	4 716,5	0,9
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	73,3	0,01
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	27,3	0,01
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	848,0	0,2


XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	Umumiy hajmga nisbatan. % da
<b>Sanoat tovarlari</b>	<b>92 441,8</b>	<b>100 %</b>
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	51 841,9	56,1
Rangli metallar	16 333,3	17,7
Cho'yan va po'lat	183,8	0,2
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	23 662,3	25,6
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	330,6	0,4
Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	2,0	0,002
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	87,8	0,1
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunolari</b>	<b>1 591,5</b>	<b>100 %</b>
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	651,5	40,9
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari	162,3	10,2
Elektr mashinalari, apparatlar va asboblari va ularning elektr qismlari	627,3	39,4
Avtomobillar (havo yostiqlaridagi transport vositalari ham)	150,4	9,5
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>	<b>14 650,9</b>	<b>100 %</b>
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	13 117,3	89,4
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	887,0	6,1
Poyabzal	375,4	2,6
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	270,0	1,8
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebel	0,3	0,1
<b>Xizmatlar</b>	<b>731,8</b>	<b>100 %</b>
Moliyaviy xizmatlar	450,6	61,6
Transport xizmatlari	165,6	22,6
Safarlar	115,6	15,8

Navoiy tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda-tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2024- yilning yanvar-avgust oylarida MDH mamlakatlariga 103,9 mln. AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning 14,5 % ini tashkil etdi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI


(yanvar-avgust, mln. AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar-avgust oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Fransiya, Rossiya, Hindiston, Turkiya, Qozog'iston, Daniya va Afg'oniston kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 87,9 % ni tashkil etdi.



### NAVOIY VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-avgust, % da)






## NAVOIY VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-avgust)*

Davlatlar	MLN AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da	Egallab turgan o'ri
	2023 y.	2024 y.		
Fransiya	257,4	484,7	188,3	1
Rossiya Federatsiyasi	34,5	58,7	170,1	2
Hindiston	40,2	45,3	112,5	3
Turkiya	21,9	21,7	98,9	4
Qozog'iston	12,6	18,9	149,9	5
Daniya	7,3	18,4	2,5 m.	6
Afg'oniston	14,7	16,4	111,9	7
Qirg'iziston	7,7	9,7	126,3	8
Turkmaniston	1,7	5,6	3,3 m.	9
Litva	6,5	5,6	86,2	10
Eron Islom Respublikasi	2,2	4,9	2,2 m.	11
AQSh	0,1	4,4	68,5 m.	12
Tojikiston	3,3	4,2	129,1	13
Xitoy	10,3	3,3	31,9	14
Ukraina	0,3	2,3	7,5 m.	15
Pokiston	0,7	2,1	3,2 m.	16
Belarus	2,7	2,0	75,9	17
Ozarbajjon	0,7	1,5	2,2 m.	18
Misr	-	1,3	-	19
Armeniya	0,2	0,9	5,6 m.	20



## NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2024- yil yanvar-avgust, ming AQSH doll.)\*



Viloyatning eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Navoiy shahri 79,5 % bilan 568 374,0 ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Tomdi tumani 0,1 % bilan 444,1 ming AQSH dollarini tashkil etdi.

\* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.





## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024- yil yanvar-avgust oylarida 12 167,6 tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 108,1 % ni tashkil etdi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qozog'iston (60,2 %), Afg'oniston (14,6 %) hamda Pokiston (12,6 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2024- yil yanvar-avgust oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 7 853,3 ming AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 108,1 % ni tashkil qildi va jami eksportdagi ulushi 1,1 % ni tashkil etdi.







## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2024- yil yanvar-avgust, o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)

<p><b>Uzum</b></p> <p>358,9 ming AQSH dollari</p> <p>305,5 tonna</p>  	<p><b>Olho'ri</b></p> <p>470,4 ming AQSH dollari</p> <p>546,3 tonna</p>  	<p><b>Shaftoli</b></p> <p>484,5 ming AQSH dollari</p> <p>451,4 tonna</p>  	<p><b>Gilos</b></p> <p>517,4 ming AQSH dollari</p> <p>256,9 tonna</p>  
<p><b>Pomidor</b></p> <p>702,3 ming AQSH dollari</p> <p>841,2 tonna</p>  	<p><b>Piyoz</b></p> <p>785,1 ming AQSH dollari</p> <p>4964,7 tonna</p>  	<p><b>O'rik</b></p> <p>855,5 ming AQSH dollari</p> <p>726,0 tonna</p>  	<p><b>Loviya</b></p> <p>2 135,3 ming AQSH dollari</p> <p>411,5 tonna</p>  



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2024- yil yanvar-avgust)

Davlatlar	Tonna	Ming AQSH dollari	Ulushi, % da *
 Qozog'iston	10232,5	4726,5	60,2
 Afg'oniston	261,6	1147,7	14,6
 Pokiston	149,9	987,6	12,6
 Xitoy xalq respublikasi	364,1	396,3	5,0
 Rossiya Federatsiyasi	136,4	107,1	1,4
 Turkmaniston	124,6	106,3	1,4
 Litva	274,5	78,9	1,0
 Latviya	231,5	59	0,8
 Belarus	59,7	57,8	0,7
 Boshqa davlatlar	333	186,1	2,4

\* qiymat ifodasidan



2024- yil yanvar-avgust oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Qozog'iston (60,2 %), Afg'oniston (14,6 %) va Pokiston (12,6 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



## TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



So‘nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo‘shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan viloyat uchun muhim soha bo‘lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo‘shilishini ta‘minlaydi.

To‘qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishini bevosita paxta xomashyosini o‘rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo‘shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.

Xususan, 2024- yil yanvar-avgust oylari yakuni bo‘yicha 22 069,3 ming AQSH dollarilik to‘qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 3,1 % ini tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan 29,3 % ga ko‘paydi.

Eksport qilingan to‘qimachilik mahsulotlari tarkibida kiyim-kechak (58,6 %), sintetik, jut tolalar (14,5 %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan to‘qimachilik mahsulotlari dunyoning 13 ta davlatiga eksport qilindi.



## TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2024- yil yanvar-avgust, ming AQSH dollari)



22 069,3 (2023 y.: 17 063,8)

Jami



12 978,9 (9 358,8)

Kiyim-kechak



3 207,5 (1 243,47)

Sintetik, jut tolalar




1 936,9 (2 707,0)

Ipak mahsulotlari



1 368,7 (1 075,6)

Adyol, parda, gilam,  
yotoq choyshablari



2 577,3 (2 678,9)


Boshqa to‘qimachilik  
mahsulotlari

Yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy etilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



## XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI

(2024- yil yanvar-avgust, ming AQSH doll.)



Xizmatlar eksporti hajmi 731,8 ming AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 0,1 % ini tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 97,5 % ni tashkil etdi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi moliyaviy xizmatlar (61,67 %), transport xizmatlari (22,6 %) va safarlar turizm xizmatlari (15,7 %) hissasiga to'g'ri kelgan.




## NAVOIY VILOYATINING IMPORTI



2024- yilning yanvar-avgust oylarida import hajmi 312,5 mln. AQSH dollarini va 2023- yilning mos davriga nisbatan 66,6 % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (41,2 %), sanoat tovarlari (24,1 %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (18,1 %) hisobiga to'g'ri keldi.



### XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2024- yil yanvar-avgust, ulushi, % da)



Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024- yilning yanvar-avgust oylarida import qilingan tovarlar hajmi 299,8 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 12,7 mln. AQSH dollariga etdi.



## NAVOIY VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-avgust, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
<b>Jami import</b>	<b>469,0</b>	<b>312,5</b>	<b>114,1</b>	<b>66,6</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	21,3	18,7	2,2 m	87,8	4,5	6,0
Ichimliklar va tamaki	-	0,1	-	-	-	0,03
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	10,3	6,7	112,5	65,0	2,2	2,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	1,8	0,9	18,7	50,0	0,4	0,3
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	3,8	1,6	2,7 m.	42,1	0,8	0,5
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	56,2	56,7	80,2	100,9	12,0	18,1
Sanoat tovarlari	120,9	75,4	100,0	62,4	25,8	24,1
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	221,5	128,9	147,3	58,2	47,2	41,2
Turli xil tayyor buyumlar	17,7	10,8	58,0	61,6	3,8	3,5
Xizmatlar	15,5	12,7	171,2	82,5	3,3	4,1



## XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2024- yil yanvar-avgust)

XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	Umumiy hajmga nisbatan. % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>	<b>18 681,8</b>	<b>100 %</b>
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	14 861,4	79,6
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	423,7	2,2
Sabzavotlar va mevalar	1 850,5	9,9
Hayvonlar uchun oзуqalar (avgustdalanmagan donlardan tashqari)	617,5	3,3
Tirik hayvonlar	663,9	3,6
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	264,8	1,4
<b>Ichimliklar va tamaki</b>	<b>76,9</b>	<b>100 %</b>
Ichimliklar	76,9	100
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>	<b>6 722,5</b>	<b>100 %</b>
Probka va yog'och-taxtalar	1 429,3	21,3
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	619,6	9,2
Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	693,0	10,3
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	3 729,9	55,5
Tabiiy kauchuk	10,5	0,2
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	193,3	2,9
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>	<b>869,5</b>	<b>100 %</b>
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	666,8	76,7
Ko'mir, koks va briketlar	202,7	23,3
<b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>	<b>1 592,5</b>	<b>100 %</b>
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	1 556,2	97,7
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar	36,3	2,3
<b>Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar</b>	<b>56 698,7</b>	<b>100,0 %</b>
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	1 995,7	3,5
Birlamchi shakldagi plastmassalar	18 972,5	33,5
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	20 668,4	36,5
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	287,0	0,5
Noorganik kimyo moddalari	7 866,8	13,9
Organik kimyo moddalari	2 384,4	4,2
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	4 053,8	7,1
O'g'itlar	4,2	0,01
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	445,8	0,8

<b>XSST bo'limi nomi</b>	<b>Ming AQSH dollari</b>	<b>Umumiy hajmga nisbatan. % da</b>
<b>Sanoat tovarlari</b>	<b>75 378,0</b>	<b>100 %</b>
Cho'yan va po'lat	5 972,8	7,9
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	7 428,6	9,9
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	5 084,5	6,7
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	2 846,0	3,8
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	260,0	0,3
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	1 524,4	2,0
Rangli metallar	52 238,0	69,3
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	23,8	0,03
Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	0,2	-
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunolari</b>	<b>128 866,2</b>	<b>100 %</b>
Avtomobillar (havo podushkalaridagi transport vositalari ham)	6 324,5	4,9
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	47 937,0	37,2
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	21 791,3	16,9
Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	18 842,0	14,6
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	22 887,1	17,8
Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunolari	5 842,0	4,5
Kanselyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	393,7	0,3
Metallarni qayta ishlash mashinalari	4 841,5	3,8
Boshqa transport uskunolari	7,3	0,01
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>	<b>10 918,1</b>	<b>100 %</b>
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	6 606,2	60,5
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	2 884,0	26,4
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	1 161,8	10,6
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	144,7	1,3
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	63,2	0,6
Poyabzal	48,0	0,4
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	6,7	0,1
Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, soatlar	3,6	0,1
<b>Xizmatlar</b>	<b>12 698,1</b>	<b>100 %</b>
Transport xizmatlari	7 112,8	56,0
Safarlar (turizm xizmatlari)	41,2	0,3
Boshqa xizmatlar	5 544,1	43,7




Tashqi savdo statistikasini yuritish metodologiyasiga ko'ra, tashqi savdo statistikasiga tranzit tovarlar, mamlakatga vaqtincha olib kirilgan yoki undan vaqtincha olib chiqilayotgan tovarlar kiritilmasligi nazarda tutilgan.

2024- yil yanvar-avgust oylari natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 33,8 % ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 66,2 % ni tashkil etdi.

### MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI


(yanvar-avgust, mln. AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar-avgust oylarida Navoiy viloyati 58 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya, Qozog'iston, Turkiya, Yaponiya, Germaniya va Koreya Respublikasi) jami importning 82,8 % ini tashkil qiladi, bu 258,7 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



### NAVOIY VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-avgust, % da)






## NAVOIY VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-avgust)

Davlatlar	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmdagi o'rni
	2023 y.	2024 y.		
Xitoy	115,9	102,2	88,2	1
Rossiya Federatsiyasi	111,5	72,3	64,8	2
Qozog'iston	34,7	29,1	83,9	3
Turkiya	20,6	19,1	92,8	4
Yaponiya	34,5	16,6	48,0	5
Germaniya	19,1	13,1	68,7	6
Koreya Respublikasi	15,3	6,3	41,1	7
AQSH	1,8	6,2	3,5 m.	8
Buyuk Britaniya	7,9	5,6	70,8	9
Italiya	1,0	4,9	5,0 m	10
Chexiya	4,8	3,8	79,3	11
Eron	3,9	3,4	88,1	12
Hindiston	-	3,4	-	13
Belgiya	1,9	2,9	152,2	14
Shveysariya	1,0	2,2	2,2 m.	15
Turkmaniston	0,7	1,8	2,7 m.	16
Litva	-	1,8	-	17
Polsha	2,5	1,6	63,2	18
Latviya	-	1,5	-	19
Saudiya Arabiston	-	1,3	-	20



## NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI (2024- yil yanvar-avgust, ming AQSH doll.)




Viloyatning importi tarkibida eng yuqori ulushni Karmana tumani 55,1 % bilan 172 252,3 ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Uchquduq tumani 0,2 % bilan 566,4 ming AQSH dollarini tashkil etdi.



## XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI

(2024- yil yanvar-avgust, ming AQSH dollarida)




2024- yil yanvar-avgust oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 12 698,1 ming AQSH dollarini yoki jami import hajmining 4,1 % ini tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 82,2 % ni tashkil etdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari (56,0 %), safarlar (turizm xizmatlari) (0,3 %) va boshqa xizmatlar (43,7 %) dan iborat bo'ldi.



## SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2024- yil yanvar-avgust oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi 75 378,0 ming AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 108,6 % ni tashkil etdi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi 24,1 % ga yetdi.



### SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR

(2024- yil yanvar-avgust)

48 061,7 ming AQSH doll.  
ulushi – 63,8 %

9 203,4 ming AQSH doll.  
ulushi – 12,2 %

7 219,7 ming AQSH doll.  
ulushi – 9,6 %



Rossiya



Xitoy Xalq  
Respublikasi



Qozog'iston

2 637,8 ming AQSH doll.  
ulushi – 3,5 %

1 534,1 ming AQSH  
doll. ulushi – 2,0 %



Turkiya



Turkmaniston



2024- yil yanvar-avgust oylarida sanoat mahsulotlari importi hajmining Navoiy viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi Rossiya 48 061,7 ming AQSH dollari (63,8 %), Xitoy Xalq Respublikasi 9 203,4 ming AQSH dollari (12,2 %) va Qozog'iston 7 219,7 ming AQSH dollari (9,6 %) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.